ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

MUHAMMAD YUSUF IJODIGA MANSUB SHE'RLAR TAHLILI

Abdusharifova Sarvinoz Sobirjon qizi
Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek she'riyati namoyandalaridan biri bo'lgan shoir Muhammad Yusuf ijodiga mansub she'rlar tahlil asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Muhammad Yusuf, "Ko'hna quduq" dostoni, tahlil, shoirlik.

O'zbek adabiyotida she'riyatga o'z hissasini qo'shgan ijodkorlar ko'p, ularning har biri o'z olamiga, o'z ijodiga ega bo'lgan shoirlardir. Ana shunday o'zining betakror ijodiga ega bo'lgan ijodkor, zamonaviy o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan biri Muhammad Yusufdir.

Shoir yaratgan she'rlari shu qadar rango-rangki, ularni ta'riflashga so'z ojizlik qiladi. Shoir turli mavzularda qalam tebratgan. Uning borliq, ishq-muhabbat, Vatan, hayvonot va nabotot olami haqida falsafiylikka yo'g'rilgan she'rlari bir talay.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali shoir ijodi haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Andijonning tanti va jo'mand o'g'lonlaridan biri Muhammad Yusuf o'z she'rlarini kuylab yozar edi, uning she'rlari musiqaday quyilib kelar, hali siyohi qurimay qo'shiq bo'lib ketardi. Qo'shiqlari shunchalar samimiy va tabiiy ediki, o'z-o'zingdan xirgoyi qilib yuborganingni bilay qoladi kishi". Shoir she'rlarining har bir misrasida kishiga begona bo'lmagan dard uning qalbini junbushga keltiradigan ichki kechinma mujassam. Shuning uchun shoir she'rlari xalq orasida mashhur, desak mubolag'a bo'lmaydi, albatta.

Shoir ijodining eng ko'zga ko'rinib, bo'y cho'zgan timsol – bu, shaksiz, ona Vatan, mustaqil O'zbekiston madhi. Uning Vatanga bo'lgan muhabbati g'oyatda cheksiz…Muhammad Yusuf qadim Quyoshistoni bo'lgan Vatan haqida hamisha jo'shib kuylaydi. Shoir nazdida Vatan yagona, uning ona diyorga bo'lgan muhabbati shu qadar g'ariyib: ijodkor uchun Vatan qadri farang suluvlaridan, butun dunyoni o'ziga mahliyo qilgan Parij, Rimdan-da a'lo:

Na gapga ko'nayin,

Na til bilayin,

Ko'zdan uyqu qochdi, dildan halovat.

Uch kunda sog'insam, nima qilayin?

Chala qolar bo'ldi hamma sayohat[1:103].

O'tgan asrning saksoninchi yillarida Yozuvchilar uyushmasida katta mushoira bo'lgan. Taniqli shoirlar qatorida bir yosh yigit minbarga chiqib she'r o'qiydi, o'qiydi-yu uloqni o'zi bilan olib ketadi. O'sha yosh yigit Muhammad Yusuf bo'lib, uning she'ri do'ppi haqida edi. Shoir "Bosh qolmadi do'ppiga loyiq" degan misrani keltirganda, butun zal uni olqishlaydi:

Bu qandayin ko'rgilik savdi,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Do‘ppi kiymay qo‘ydi xaloyiq.

Boshga loyiq do‘ppi yo‘qdir yo –

Bosh qolmadi do‘ppiga loyiq[2:238].

Shoir haqiqiy o‘zbek o‘g‘loni dilidagi dardni shu she’r orqali go‘zallik va nafosat bilan hech qanday bo‘rttirishlarsiz tasvirlab bergan uning bu she’rini yozishdan yagona maqsadi do‘ppiga loyiq odamlarning yurtimizda ko‘payishi, shu insonlar orasida o‘zining ham Vatanga loyiq bo‘lish masalasidir. Ijodkor “do‘ppiga loyiq bo‘lmagan boshlar” to‘g‘risida yozar ekan, shu bilan bir qatorda jamiyatimizdagi ayrim qo‘shtirnoq ichidagi “madaniyatli” insonlarni tilga olib, “To‘n haqida she’r” yozadi. She’rning epigrafida: “Vodillik polvon Tursunali Mamajonov hamisha oq yaktak bilan to‘n kiyib yuradi. Bir kun unga muallimi: “Iltimos, darsga to‘n kiyib kelmang, har holda siz institutda o‘qiysiz”[3:35], - degan ekan, - deb yozadi shoir Muhammad Yusuf.

O‘zbekning to‘nining yenglari uzun,

O‘zbekning jo‘nining yenglari uzun.

Yengi uzun ko‘ylak kiymanglar, qizlar,

Madaniyat dargohida o‘qisangizlar[3:35].

Shoirning she’rlari bilan tanishib chiqar ekansiz, uning “Saylanma”dan joy olgan “Ko‘hna quduq” dostoni kishini befarq qoldirmaydi. Doston lirik qahramonning uyqudan uyg‘onish holati bilan boshlanadi, shoirni uyg‘otgan shaxs esa buyuk edi. Ijodkorning borar joyi Buxoro, lekin nimagadir Buxoro undan xafa, hatto shoir tushida Buxoro yig‘lar edi. Shoir xayolida uni faqat ulug‘ zotlargina ovutishi mumkinligi haqida o‘ylaydi. Biroq ul zotlarni topa olmaydi. Uning borganidan esa foyda yo‘q. Buxoro bo‘lsa cho‘kib, nurab, tugab borardi.

Qanday go‘zal eding, Buxoro,

Osmono‘par gumbazlar aro.

Men ziyorat qilib ovora,

Topolmadim bir sog‘ minora[2:157].

Shoir Buxoroga borar ekan, kimsasiz hujralarga ko‘zi tushadi. “Buxoroda qancha hujra bor?”. Lirik qahramon shu savolga javob axtaradi. Axiyri, savoliga javob topadi:

“Yer yuzida qancha o‘qimishli odam bo‘lsa, shuncha. Demak, barcha o‘qimishli odamlarda oqibat yo‘q ekan. Ular hujralarni o‘z holiga tashlab qo‘ygan. Zax bosib yotibdi bu qadimiy hujralar”[2:158]. Shoir unga achinadi va tasalli Shoir Hazrat Bahoviddin maqbarasiga borib, ziyorat qiladi. Shoir shu payt o‘zini shu qadar g‘arib his qildiki, go‘yo u Buxoro oldida gunohkor:

Men bir g‘arib shoir, men shoh emasman,

Aybim ham emasdir bo‘lolmaganim.

Faqir bo‘lib ham begunoh emasman,

Gunohim – o‘ttiz yil kelolmaganim!..[2:162]

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Shoir bilan kelgan hofiz aytadiki, Buxoroda bir maqbara mavjud bo‘lib, kimda kim niyat qilib uning atrofini yeti marta aylanib chiqsa, tilagi amalga oshar ekan. Maqbaraga minglab odamlar yig‘ilgan, biroq ularning hech biri, hatto Buxoroliklar ham bu hikmatni bilmas ekan. Shoir shunday xulosaga keladi: “Buxoro sen buyuk hikmatsan. O‘z bolang ham qadriga yetmagan hikmat. Seni to‘kilayotganing shundan emasmi?”[2:163]. Keyin shoir quduq yoniga boradi va undan qonib-qonib suv ichadi, Muhammad Yusuf ququqning qa’riga nazar soladi, quduqning tiniq, sokin suviga qarab uning ko‘zi tinadi, ochiladi, u o‘zini tamoman boshqa odamdek his etadi:

Qa’riga qaradim – ko‘zlarim tindi,

Yo‘q, ko‘zim ochildi – qo‘ydim-u qadam

Hayratim quduqqa to‘kildi,

Men boshqa odamman,

Men boshqa odam[2:163].

Shoir yozishicha, Buxoroda bir paytlar Xonguli degan ohular bo‘lgan. Ular Muhammad Yusufning tushiga kirib, u bilan suhbatlashishadi, savol berishadi. Ijodkor buni eslay turib, dilida bir falsafa paydo bo‘ladi:

“Daryolar quriydi. Tog‘lar cho‘kadi. Kitoblar yonadi. Dunyoda faqat bir narsa – savollargina abadiy. Savollar kiyik so‘qmoqqa eltuvchi yo‘lakdir. Ko‘ksingda savoling bo‘lmasa, nega dunyoga kelding, otingdan aylanay, Inson?!”[2:171]. Shoir bu satrlar orqali bu dunyoning o‘tkinchiligini, hamma narsa qachondir yo‘q bo‘lishini, daryolar qachondir qurishi-yu, tog‘lar ham qachondir qulashini keltirib o‘tadi. Daryo – go‘yoki umr, u mavjlanib, to‘lqinlanib oqib boradi. Oldimizdagi mashaqqat va sinovlar bir tog‘ u bir kuni, albatta, qulaydi. Har qanday qiyinchilik ortida esa go‘zal baxt yotadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Shoir Muhammad Yusuf ijodida qalb kechinmalari, qalb tug‘yonlari aks etadi nafaqat aks etadi, balki ular o‘quvchi(kitobxon)ga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muhammad Yusuf. Yolg‘onchi yor. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2014.
3. Muhammad Yusuf. Ko‘nglimda bir yor. – T.: “Davr-press” nashriyoti, 2019.
4. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida. Muharrir: U. Qo‘chqorov. – T.: “Adib” nashriyoti, 2014.